

“HIBAT UL-HAQOYIQ” ASARIDA ILMNING  
FOYDASI VA JOHOLATNING ZARARILARI

*Jabborova Shohidabonu Dilshod qizi*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti Noshirlish ishi yo‘nalishi 4- bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** mazkur maqolada “Hibat ul-haqoyiq” asarida ilm va jaholatning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri tahlil qilinadi. Asar muallifi ilmni insoniyat uchun eng yuksak fazilat sifatida ko‘rsatib, uning inson tafakkuri va axloqiy kamolotidagi o‘rnini asoslaydi. Shuningdek, jaholatning zararli oqibatlari, bilimsizlik tufayli yuzaga keladigan muammolar va insonning johillikdan qutulish yo‘llari yoritiladi. Maqolada asardagi ilm va jaholat mavzusiga oid fikrlar ilmiy-nazariy tahlil qilinib, uning bugungi jamiyat hayotiga ta’siri muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ilm, jaholat, ma’rifat, axloq, donishmandlik, bilimsizlikning zararlar, ta’lim va tafakkur.

## KIRISH

Ilm insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Tarix shuni ko‘rsatadiki, ilm-ma’rifat yuksak darajada rivojlangan jamiyatlar iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatdan taraqqiy etgan bo‘lsa, johillik hukmron bo‘lgan jamiyatlar tanazzulga yuz tutgan. Islom madaniyatida ham ilmga katta ahamiyat berilgan bo‘lib, “Hibat ul-haqoyiq” asarida bu mavzuga alohida urg‘u qaratilgan. Ushbu maqolada asarda ilmning fazilatlari va jaholatning zararli jihatlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Ilm va jaholat doimo insoniyat tarixida eng muhim tushunchalar bo‘lib kelgan. Ilm insonning ongini, tafakkurini ochadi, hayotini yuksaltiradi va uni baxt sari yo‘naltiradi. Jaholat esa aksincha, insonni tubanlik, adashish va qoloqlikka yetaklaydi. Shoir bu mavzuda chuqur fikr yuritadi va “Hibat ul -haqoyiq” asarida ilmning foydalarini va jaholatning zararlar, Muhammad (s.a.v)ning ilim o‘rganish haqida aytgan so‘zlari, Tangrining mo‘jizalari, johillikdan tiyilish, Xudoning rasuliga sodiq bo‘lish haqida Rasululloh (s.a.v)ning aytgan so‘zlari haqida hikoya qiladi. Ilmli inson jamiyatda doimo hurmatga ega bo‘ladi. U qayerga borsa ham, o‘zining bilimi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shoir bu fikrni quyidagi misra orqali tasdiqlaydi:

“Bilimli oltindek har yerda ustun,

Bilimsiz misoli qurigan o‘tin.”

Yuqorida ko‘rinadiki, ilmli odam oltin kabi qadrli, bilimsiz odam esa hech kimga kerak bo‘lmagan qurigan o‘tindek befoyda ekani aytib o‘tilgan. Bilim insonning baxt

sari yo‘lini ochadi. Ilm tufayli odam o‘z hayotini yaxshilaydi, xatosini tuzatadi va taraqqiyotga erishadi:

“Bilimdan ochilar saodat yolli,  
Bilim ol — saodat manziliga yet.”

Ya’ni, ilm olgan inson baxt sari harakat qiladi va oxir-oqibat o‘z maqsadiga yetadi. Bilimsiz odam esa bunday imkoniyatga ega bo‘lmaydi. Ilm insonni mukammal qiladi. Shoir insonning aqli uning eng katta boyligi ekanini ta’kidlaydi:

“Suyak — ilig-u er — bilim bilan, bil,  
Suyak ko‘rki — ilik, er ko‘rki — aql.”

Quydagи misolda insonning ilm va aql bilan mukammal bo‘lishi suyak va ilikka qiyoslangan. Xuddi iliksiz suyak bo‘sh va foydasiz bo‘lgani kabi, bilimsiz inson ham hech narsaga yaramaydi deya takidlaydi. Bilimsiz inson hayotda qadrsiz bo‘ladi.

Shoir ilmli inson abadiy yashashini, bilimsiz odam esa tirik bo‘lsa ham, ma’nан o‘lik ekanini ta’kidlab o‘tadi.

“Bilimli o‘lsa-da, oti o‘lmadi,  
Bilimsiz hayot-u, oti-chi, o‘lik.”

Keltirilgan jummalarga tarixdan misol keltirsak, buyuk olim va shoirlar nomi asrlar osha yashab kelmoqda. Lekin bilimsiz odam hayot kechirgan bo‘lsa ham, u haqda hech kim eslamaydi. Bilimsiz odam xato va adashishlarga moyil bo‘ladi. Jaholat insonni tubanlikka yetaklaydi. Bilimsizlik insonni har qanday noto‘g‘ri narsaga ishonishi aytib o‘tiladi.

“Bilimsizligidan ko‘p qavmlarga  
Qo‘lini but qilib, sig‘inish odat.”

Bilimsizlik tufayli insonlar noto‘g‘ri yo‘llarga kirib ketishi tasvirlangan. Masalan, tarixda ko‘plab johil odamlar turli bid’at va xurofotlarga ishonib, to‘g‘ri yo‘ldan adashganligi ta’kidlab o‘tilgan. Bilimsiz odam na o‘ziga, na jamiyatga foyda keltiradi.

Bilimsiz odam hatto o‘z hayotiga ham e’tibor bermaydi, o‘zini rivojlantirmaydi. Shoir buni quyidagicha ifodalaydi:

“Bilimsizga tirik o‘lm oq ko‘rgulik.”

Ya’ni, bilimsiz odam tirik bo‘lsa ham, uning hayoti o‘likdek. Chunki u jamiyatga foyda bera olmaydi, o‘zining ham hayoti befoyda kechadi deydi. Muhammad (s.a.v)ning ilim o‘rganish haqida aytgalarini quyidagicha tahlil qilsak bo‘ladi.

“Bilimli bilimni farqlagan bo‘lar,  
Bilimning qadrini bilimli bilar.”

Shoir bilimli inson ilmdan to‘g‘ri foydalana oladi deydi. Ya’ni, ilmli odam bilimning asl mohiyatini tushunadi va uning ahamiyatini anglaydi. Bilimsiz odam esa ilmdan qanday foydalanishni bilmagani uchun uning qadriga yetmaydi. Bu fikr hayotiy haqiqatni aks ettiradi: faqat bilimdon inson ilmning chuqr ma’nosini tushunib, undan foydalandi.

“Erga bilim qadrin bilim bildirar,  
Bilimni bilimsiz nodon ne qilar?”

Shoir ilmlı kishining jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatib beradi. Faqat bilimli inson bilimning qadriga yetadi shu bilan birga uni boshqalarga o‘rgata oladi. Bilimsiz odam esa ilmga beparvo bo‘lib, undan foydalana olmaydi. Biz anglashimiz mumkinki, ilm o‘rganish va uni boshqalarga yetkazish faqat bilimdon odamlar uchun xosdir. Johil kishi esa ilmga e’tibor bermagani uchun undan hech qanday manfaat topa olmaydi.

“Bilimsizga haq so‘z tatimas hech ham,  
Pandga qulqoq tutmas bilimsiz odam.”

Bilimsiz odamning haqiqatni tushunmasligi va pand-nasihatga qulqoq solmasligini shoir tanqid qiladi. Donishmand inson haqiqatni qabul qilib, undan saboq olsa, johil kishi nasihatga beparvo bo‘ladi. Ilmli inson har qanday holatda ham o‘zini tarbiya qila oladi, bilimsiz esa maslahatni tinglamay, xatolarini takrorlayverishini anglashimiz mumkin.

“Yuvinsa pok bo‘lar har qanday porok,  
Johil pok bo‘lmaydi ming yuvinsa ham.”

Asarda ramziy ma’nolardan foydalanylган. Shoir insonning tashqi va ichki pokligi haqida fikr bildiradi. Tashqi poklik yuvinish bilan ta’minlanadi, lekin insonning axloqiy pokligi bilim va tafakkurga bog‘liq. Johil kishi qanchalik tashqi tozalikka intilmasin, uning ichki dunyosi ilmsizligi sababli ma’naviy iflos bo‘lib qoladi. Bu fikr bizga ilmning ruhiy va axloqiy poklik uchun muhimligini anglatadi.

O‘quvchiga ilmning ulug‘ligi va bilimsizlikning zararini ta’kidlab, o‘quvchini ilmga intilishga undaydi.

“Bilimli ne qilar — biladi tayin,  
Bilib qilganidan o‘kinmas keyin.”

Ilmli odam har qanday ishni ongli ravishda bajarishini, harakat qilmasdan oldin o‘ylab, bilib harakat qiladi va qabul qilgan qaroridan pushaymon bo‘lmaydi. Bilimli inson bilimiga suyanib ish tutadi, natijani oldindan tahlil qiladi. Bu, aksincha, bilimsiz odamning ko‘r-ko‘rona ish qilishi va natijada pushaymon bo‘lishi bilan zid qo‘yiladi.

“Bilimsizga har ish to‘g‘ri ko‘rinar,  
Shundan unga chora yo‘q o‘kinmayin.”

Keltirilgan misol orqali bilimsizlikning eng katta xavfini ko‘rsatadi . Bilimsiz odam o‘z fikrini to‘g‘ri deb hisoblaydi va o‘z xatolarini anglamaydi. Uning noto‘g‘ri qarashlariga hech qanday nasihat yoki o‘git ta’sir qilmaydi. Shoir jumlalar orqali johillikning oldini olish faqat bilim orqali tuzatilishini anglatadi.

“Bilimli kerakli so‘zin gapirar,  
Keraksiz so‘zini ko‘mib yashirar.”

Ilmlı insonning odob-axloq me’yorlariga rioya qilishini ta’kidlaydi. Donishmand kishi faqat kerakli joyda gapiradi va ortiqcha, befoyda gaplardan tiyiladi. Aksincha, johil odam o‘ylamasdan so‘zlaydi, bu esa ko‘pincha zarar keltiradi.

“Bilimsiz ne desa, uqmasdan deyar,  
Uning o‘z tili o‘z boshini yeyar.”

Asar matnida bilimsiz odamning eng katta kamchiligini ochib beradi. U o‘ylamasdan, fikrini tahlil qilmasdan so‘zlaydi va bu ko‘pincha unga zarar keltiradi. Bunday kishilar ortiqcha yoki noo‘rin gaplari bilan o‘zlariga dushman orttirishadi, hurmatini yo‘qotishadi.

“Haqni tanishga ham kerak ma’rifat,  
Bilimsizlikda yo‘q hech ezgu jihat.”

Haqiqatni tushunish va to‘g‘ri yo‘lni topish uchun ilm zarurligi ta’kidlanadi. Bilimsiz odam haqiqatni anglay olmaydi va natijada noto‘g‘ri yo‘llarga kirib ketadi. Ilm esa insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, unga haqni nohaqdan ajratish imkonini beradi.

“Bilimli so‘zi pand-nasihat, adab,  
Bilimlini maqtar Ajam-u Arab.”

Berilgan jumalarda ilmlı odamning jamiyatdagi o‘rniga urg‘u berilgan. Donishmand kishining so‘zlari hikmat va nasihatga boy bo‘ladi, odamlar uni qadrlaydi. Shoir bu fikrni yanada mustahkamlash uchun ilmlı odamni ham Sharq, ham G‘arb (Ajam va Arab) maqtashini ta’kidlaydi.

“Bilim faqir uchun tunganmas boylik,  
Hisobsizga bilim yechilmas hisob.”

Bilimning moddiy boyliklardan ustun ekanligini inkor eta olmaymiz. Bilim hech qachon tugamaydigan boylik bo‘lib, har kim uni orttirishi mumkin, ammo biror kishi uni olib qo‘ya olmaydi. Bilimsiz odam uni qadrlamaydi va unga egalik qilishning yo‘llarini tushunmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Hibat ul-haqoyiq” asarida ilmning bebaone’mat ekani va bilimsizlikning inson hayoti hamda jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri chuqur yoritilgan. Shoir ilmni insonni yuksaltiruvchi, uning hayotini mazmunli qiluvchi eng ulug‘ boylik sifatida tasvirlaydi. Bilimli kishi jamiyatda obro‘-e’tiborga ega bo‘lib, doimo to‘g‘ri yo‘lni tanlaydi. Bilimsizlik esa insonni johillikka, adashishga, xurofotga va hattoki halokatga olib boruvchi eng katta illat sifatida taqdim etiladi. Maqolada keltirilgan baytlardan xulosa qilish mumkinki, inson uchun haqiqiy boylik nafaqat moddiy mablag‘, balki bilimdir. Chunki moddiy boylik vaqt o‘tishi bilan yo‘qolishi yoki kamayishi mumkin, biroq ilm insonni hayot davomida ham, vafotidan so‘ng ham yodga olib turuvchi bebaho meros bo‘lib qoladi. Ilmlı inson o‘zidan keyingi avlodlarga foydali bilim qoldiradi, uning ishi va g‘oyalari yashab qoladi. Bilimsizlik esa insonni yolg‘on va xurofotga ishonishga, adolatsizlik va johillik yo‘lidan yurishga undaydi. Shoir bilimsiz kishilarning har qanday gapga ishonishi, haqiqatni anglash

qobiliyatidan mahrumligi haqida to‘xtalib, ularni keraksiz so‘zlardan tiyilishga, aql bilan ish tutishga chaqiradi. Bilimsiz odamning gap-so‘zlari, noto‘g‘ri qarorlari uning o‘ziga zarar keltirishi, hatto uni halokatga yetaklashi mumkinligi alohida ta’kidlanadi. Bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraganda, ushbu fikrlar hali ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. XXI asr — axborot asri bo‘lib, ilm-fan va texnologiyalar yuksak darajada rivojlangan. Biroq, bilimsizlik va johillik hamon muammo bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ilm va aql bilan tahlil qilmasdan har qanday ma’lumotga ishonish, xurofot va asossiz qarashlarga ergashish jamiyatni orqaga suruvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, ushbu asarda ilgari surilgan fikrlar hozirgi avlodni ilmgaga intilish, tanqidiy fikrlash va bilim olishga rag‘batlantiruvchi muhim ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, “Hibat ul-haqoyiq” asari insoniyatni ilm olishga, haqiqatni anglashga va jaholatdan qochishga chaqiruvchi beباho pand-nasihatlar to‘plamidir. Ushbu asar yoshlarni ilmgaga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga, hayotda o‘z yo‘lini to‘g‘ri tanlashga undaydi. Bilim orqali inson baxt-saodatga erishishi, o‘z hayotini mazmunli va sermahsul o‘tkazishi mumkinligi ushbu asarning asosiy g‘oyalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, biz har doim ilmgaga intilishimiz, bilimsizlikning zararli oqibatlaridan ogoh bo‘lishimiz va jamiyat taraqqiyoti yo‘lida bilimni targ‘ib qilishimiz zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ochilov, E. (2013). Hibat ul-haqoyiq (Ahmad Yugnakiyning asari). Toshkent: Sharq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, Bosh tahririyyat.
2. Xurshid Davron kutubxonasi. (kh-davron.uz)
3. Uz.wikipedia.org
4. Oriens.uz